



ARTICLE INFO

Received: 13rd November 2022

Accepted: 19th November 2022

Online: 23rd November 2022

KEY WORDS

Korrupsiya, ta'lim konsepsiyasi, korrupsiyaga qarshi umumiy va kasbiy ta'lim, korrupsiya yo'nalishi bo'yicha magistrlik darajasini berish uchun mo'ljallangan o'quv dastur.

KORRUPSIYAGA QARSHI O'QITISHNING TA'LIM SOHASIDAGI STANDARTLARI

Ibragimov Murodjon Jumanazarovich

TDYU Ixtisoslashtirilgan filial

Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7350185>

ABSTRACT

Ushbu maqola korrupsiyaga qarshi o'qitishning ta'lim sohasidagi standartlariga bag'ishlangan. Korrupsiyaga qarshi o'qitish bo'yicha BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi tavsiyalari asosida bir necha davlatlarda mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni ushbu soha bo'yicha o'qitishni amalga oshiruvchi bir nechta ta'lim dasturlari yo'lga qo'yib kelinmoqda. Xususan, Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashishning 20 tamoyili to'g'risidagi rezolyusiyasining 1-bandida «Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va bu borada aholining xabardorligini oshirish va axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish», lozimligi to'g'risidagi vazifa belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi ta'lim muassasalarining korrupsiyaga qarshi umumiy ta'limni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlari fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, axborot kompaniyalarini o'tkazish, korrupsiyaga oid tadqiqotlarni nashr etish va maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish usullari bo'yicha ommaviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi o'qitish bo'yicha BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi tavsiyalari asosida bir necha davlatlarda mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni ushbu soha bo'yicha o'qitishni amalga oshiruvchi bir nechta ta'lim dasturlari yo'lga qo'yib kelinmoqda. BMTning ushbu konvensiyasida konvensiyaga a'zo ishtirokchi-davlatlarga ulardagi ommaviy mansabdor shaxslarni korrupsiyaga qarshi kurashish, xulq-atvor

qoidalari bo'yicha, shuningdek halollik tamoyili asosida doimiy malakasini oshirib borishni tashkil etish lozimligi to'g'risida ko'rsatma berilgan.

Ammo Korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsiyaga qarshi ta'limning bir qismi sifatida faqatgina davlat xizmatchilarining o'zini emas, balki aholining ham ushbu sohadagi huquqiy bilimlarini oshirib borish lozimligi ko'pgina xalqaro hujjatlarda ta'kidlanib kelinmoqda. Xususan, Yevropa



Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashishning 20 tamoyili to'g'risidagi rezolyusiyasining 1-bandida *«Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va bu borada aholining xabardorligini oshirish va axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish»*¹, lozimligi to'g'risidagi vazifa belgilangan.

Jahon amaliyotida korrupsiyaga qarshi ta'lim Konsepsiyasi ikkita asosiy guruhga ajratiladi. Bular umumiy hamda kasbiy korrupsiyaga qarshi o'qitishdir.

Korrupsiyaga qarshi umumiy ta'lim turi shartli ravishda asosiy deb atalib, huquqshunoslar yoki mansabdor shaxslar uchun mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi yuqori ixtisoslashtirilgan professional ta'limdan farq qiladi. Korrupsiyaga qarshi umumiy ta'lim mutaxassisga emas, balki fuqaroga qaratilgan bo'lib, huquqiy xulq-atvorni targ'ib qilishni, muayyan xatti-harakatlarning korrupsion xususiyatini tan olish ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ishiga oladi. Ammo korrupsiyaga qarshi umumiy ta'limning eng muhim tarkibiy qismi bu fuqarolik mas'uliyatini va korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishdir. Boshqacha qilib aytganda, Korrupsiyaga qarshi ta'limning vazifasi odamlarni fuqarolik odob-axloq qoidalariga o'rgatish va zarur ijtimoiy faoliyat shakli sifatida jamoatchilik nazorati g'oyasini shakllantirishdan iborat bo'lib, ularsiz davlat va biznesning shaffofligi va hisobdorligi kabi korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari amalga oshmaydi. Korrupsiya holatlaridan xabardor bo'lgan fuqaro korrupsiyani bir o'zi yengib chiqa olmasada, uning ko'rinishlariga murossasiz munosabatda

bo'ladi, o'zi tasodifan guvohi bo'lgan korrupsion holatlarga ko'z yummaydi.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi ta'lim muassasalarining korrupsiyaga qarshi umumiy ta'limni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlari fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, axborot kompaniyalarini o'tkazish, korrupsiyaga oid tadqiqotlarni nashr etish va maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish usullari bo'yicha ommaviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kasbiy ta'lim, korrupsiyaga qarshi umumiy ta'limdan farq qilgan holda, nafaqat uning oldini olishga, balki amalda korrupsiyaga qarshi kurashishga ham qaratilgan bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat apparati korrupsiyaga qarshi kurash mavzularida ixtisoslashgan turli kasbdagi malakali kadrlarga (rahbarlar, advokatlar, mansabdor shaxslar, prokurorlar, rolitsiyashilar) juda muhtoj. Shu boisdan, Yevpora Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashning 20 tamoyili to'g'risidagi rezolyusiyasining 7-bandida *«Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar yoki organlarning ixtisoslashuvini rag'batlantirish va ularni o'z vazifalarini bajarish uchun tegishli vositalar va o'qitish bilan ta'minlash zarur»*ligi ta'kidlangan.

Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj nafaqat davlat tashkilotlari, balki tadbirkorlik sohasidagi ixtisoslashgan mehnat bozori uchun ham xosdir. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi professional ta'lim sohasidagi faoliyatni ikkita asosiy



blokga bo'lish mumkin: akademik loyihalar va biznes ta'lim².

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish bo'yicha bir nechta xalqaro o'quv dasturlari mavjud. Ularni bir necha me'zonlarga ko'ra guruhlariga ajratib chiqish mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashning turli yo'nalishlari bo'yicha magistrlik darajasini taklif qiluvchi ba'zi taniqli o'quv dasturlari ular orasida alohida o'rin ega llaydi. Hozirgi vaqtda quyidagi uchta dastur ushbu soha bo'yicha magistrlik darajasini taklif qiladi. Bular:

1. International Asademy of Anti-Corruption (Laxenburg, Austria) – Xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi (Luksenburg, Avstriya) Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida magistrlik darajasini berish uchun tashkil etilgan xalqaro o'quv dasturi bo'lib hisoblanadi³.

2. University of Portsmouth – Portsmut universitetining Firibgarlik va Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha magistrlik darajasini berish uchun mo'ljallangan o'quv dasturi⁴.

3. The University of Sussex (Sasseks universiteti): Korrupsiya va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha magistrlik darajasini berish uchun mo'ljallangan o'quv dasturi⁵.

Qolgan kurslar korrupsiya bilan bog'liq mavzular bo'yicha turli uzunlikdagi kurslardir. Ular mahorat va malaka oshirish uchun magistrlik dasturining bir qismi sifatida qabul qilinishi mumkin. Ba'zi kurslar jismoniy ishtirok etishni talab qiladi, lekin ularning ko'plari onlayn ko'rinishga ega yoki faqat onlayn. Ba'zilari rus tilida ham olib boriladi.

Onlayn kurslarning ba'zilari mustaqil ta'limdan iborat. Ba'zilari universitetlar tomonidan taklif qilinadi va ESTS ball beradi, boshqalari Bazel Akademiyasi yoki Berlindagi kabi tegishli tashkilotlar tomonidan taqdim etiladi. Deyarli barcha kurslar kimnidir korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'qitilgan mutaxassis sifatida sertifikatlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qandaydir bitiruv sertifikatini beradi. Bunday «sertifikat» ma'lumotlarining ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak⁶.

Xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi (International Asademy of Anti-Corruption) Korrupsiyaga qarshi o'qitish tashkil etilgan eng nufuzli xalqaro ta'lim maskanlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Unda har yili korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. Ushbu mutaxassislar dunyoning turli burchaklaridan kelib, mazkur o'quv dasturlarida ishtirok etishadi.

Xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasining Master's in Anti-Corruption Studies (MASS) deb ataluvshi ta'lim dasturi asosan Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida ish tajribasiga ega bo'lgan davlat amaldorlariga mo'ljallangan. MASS ta'lim dasturida ta'lim olish natijasida siz kasbiy faoliyatingizni davom ettirib, 120 ECTS krediti bilan xalqaro miqyosda tan olingan Magistr darajasiga ega bo'lishin giz, korrupsiyaning qanday namoyon bo'lishi va uning atrofdagi ijtimoiy murakkabliklar haqida tushunchalaringizni rivojlantirishin giz, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, kriminologiya, xulq-atvor fanlari, huquqshunoslik, inson huquqlari va komrlayens sohasidagi mutaxassislardan



korrupsiyaga oid tushunchalarni olishingiz, nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda turli kontekstlarda Korrupsiyaning turli turlarini aniqlash va hal qilish bo'yicha ko'nikmalaringizni oshirishingiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yisha, jumladan, uni baholash, unga qarshi kurashish siyosatini shakllantirish, korrupsion holatlarni tergov qilish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishingiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro amaliyotchilar va olimlar ko'magi ostida akademik tadqiqotlar olib borishingiz mumkin bo'ladi⁷.

MASS ta'lim dasturining yettita modulidan har biri 14 ECTS (European Credit Transfer and Assumulation System – Yevpora kredit o'tkazish va jamg'arish tizimi) kreditini, magistrlik dissertasiyasi esa 22 kreditni o'z ishiga oladi. Shunday qilib, MASS darajasi jami 120 ECTS kredit berishga mo'ljallangan, bu esa PhD dasturlariga kirish imkonini beradi. MASS dasturi yetti modul va magistrlik dissertasiyasidan iborat bo'lib, ikki o'quv yili davomida o'tiladi⁸.

Portsmut universiteti jinoiy odil sudlovga ixtisoslashgan va firibgarlik tadqiqotlari markazidir. Firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha magistrlik darajasi bo'yicha ta'lim dasturida firibgarlik va korrupsiyaning ko'lami va tabiati hamda ularga qarshi kurashda qo'llaniladigan strategiyalar bo'yicha joriy tadqiqotlarni o'rgatadi. Asosiy fanlar kriminologiya va kiberjinoiyatchilikni va mutaxassisliklarga xalqaro firibgarlik va korrupsiyani, xalqaro va transmilliy huquqbuzarliklarni va tergovni boshqarishni o'z ishiga oladi.

Dastur to'liq yoki yarim kunlik bo'lishi, o'quv binosida yoki masofaviy ta'lim ko'rinishlarida o'tkaziladi. Ushbu kursning har bir modulida ma'lum miqdordagi kreditlar to'planiladi. Jami bo'lib kurs yakuni bo'yicha 180 kredit to'planilishi talab etiladi⁹.

Sasseks universiteti korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta'lim dasturiga ega bo'lgan dunyodagi yetakchi ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi. Sasseks korrupsiyani o'rganish markazida joylashgan ushbu kurs korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash va boshqaruv masalalarini tahlil qiluvchi dunyodagi yagona to'liq vaqtli magistratura bo'lib qolmoqda. Ta'lim dasturida o'qish muddati 1 yillik yoki 2 yillik bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu kursni onlayn o'rganish ham mumkin.

Bu kurs Buyuk Britaniyadagi Korrupsiya masalalarini hal qiluvchi yagona to'liq kunlik magistratura hisoblanadi. Unda asosan korrupsiyani qanday aniqlanishi va korrupsiyaga qarshi kurashishda qanday yondashuvlarga ega bo'lish lozimligi haqidagi murakkab masalalarni o'rgatiladi. Ushbu o'quv dasturi davomida partiyalar, siyosatchilar va davlat xizmatchilari tomonidan hokimiyatni muntazam ravishda suiste'mol qilishdan tortib, kichik miqyosdagi, mayda qonunbuzarliklargasha bo'lgan aniq korrupsion holatlarga misollar tahlil qilinadi.

Mazkur o'quv dasturi orqali korrupsiya nima ekanligi, u qayerda va nima uchun ko'payib borayotgani va unga qarshi kurashish uchun nima qilish mumkinligi



haqida tushunchangizni rivojlantirish mumkin bo'ladi¹⁰.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi nigilizm muammosini hal qilishda turli xil yondashuvlar mavjud, ammo biz birinchi marta bu muammoni shartli ravishda beshta asosiy tushunchalar orqali hal qilishga harakat qildik:

1. Ommaviy ta'lim. Bu Konsepsiya mamlakat aholisining ijtimoiy mavqeyi, yoshi va boshqa sifatlaridan qat'i nazar, barcha qatlamlari uchun korrupsiyaga qarshi tayyorgarlikni nazarda tutadi. Aksariyat hollarda korrupsiyaga qarshi ta'lim erta yoshdan boshlanadi, ya'ni. maktabgacha ta'limdan, keyin maktab, universitet, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Ushbu yondashuvning afzalliklari shundaki, korrupsiyaning namoyon bo'lishiga toqatsizlik inson shakllanishini dastlabki bosqishida paydo bo'ladi va unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Asosan, bu tushuncha Janubiy Koreya, Indoneziya, qisman AQSh, Makedoniya, Latviya, Rolsha, Avstriya, Quvayt va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan.

2. Korrupsiyaga qarshi o'qitish faqat ta'lim muassasalarida ma'lum bir yo'nalish talabalarini uchun. Ushbu konsepsiya universitet talabalarini korrupsiyaga qarshi o'qitishni nazarda tutadi, chunki aynan shu talabalar kelajakda davlat xizmatchisi bo'lishadi.

Ushbu yondashuvning afzalligi, avvalgidek, shaxs shakllanishining dastlabki bosqishida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishdir va unga

butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Asosan, bu tushuncha Portugaliyada (Koimbra universitetining yuridik fakulteti, Lissabon universiteti, Milliy menejment instituti), Avstraliyada (Avstraliya Kanberra milliy universiteti), Litvada (Vilnyus universitetining yuridik fakulteti, Kaunas texnologiya universiteti), Litva Harbiy Akademiyasi), Bolgariya (Burgas erkin universiteti, Milliy va jahon iqtisodiyoti universiteti, Yangi Bolgariya universiteti) va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan¹¹.

3. Ixtisoslashgan organlarda barcha davlat xizmatchilarini profilli tayyorlash. Ushbu Konsepsiyada ixtisoslashtirilgan muassasalarda barcha davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi tayyorgarligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Ushbu turdagi mashg'ulotlar uchun asos davlat xizmatiga qabul qilish, ma'lum bir lavozimga, vaqti-vaqti bilan ma'lum vaqtdan keyin va boshqa asoslarga ko'ra tayinlashdir. Ushbu yondashuvning afzalligi barcha davlat xizmatchilarining korrupsiya xavfiga eng ko'p duchor bo'lgan shaxslar guruhi sifatida korrupsiyaga qarshi o'qitishdir. Asosan, bu konsepsiya Janubiy Koreyada (Korrupsiyaga qarshi kurash instituti, AKTI), AQShda, Serbiyada (Huquq akademiyasi), Estoniyada (Jamoatchilik malakasini oshirish va rivojlantirish markazida) keng tarqalgan¹².

4. Kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha idoraviy dasturlar doirasida davlat xizmatchilarining ma'lum toifasini tayyorlash. Ushbu Konsepsiya ma'lum bir idora yoki vazirlik doirasida Korrupsiya

¹⁰<https://www.sussex.ac.uk/study/master>

¹¹ Министерством образования и науки совместно с Министерством иностранных дел Российской Федерации от 31.05.2011 г. за №МОН-П-1389.



xavfiga eng ko'p duchor bo'lgan davlat xizmatchilarining ma'lum bir toifasi uchun korrupsiyaga qarshi treningni nazarda tutadi. Ushbu turdagi o'qitish asosan ma'lum bir davlat xizmatiga kirgan yoki ma'lum bir lavozimga tayinlangan paytdan boshlab, shuningdek, vaqti-vaqti bilan ma'lum vaqtdan keyin va boshqa sabablarga ko'ra boshlanadi. Ushbu yondashuvning afzalligi o'qitishning asosiy yo'nalishi, ya'ni asosan Korrupsiya bilan shug'ullangan muassasalar xodimlarini o'qitishdir. Bu esa ushbu resurslarni maqsadli sarflash va davlat resurslarini tejash imkonini beradi. Asosan, bu konsepsiya Hindistonda (Markaziy Tergov Byurosi Akademiyasi – huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi maxsus kurslar), Avstriyada («Korrupsiyaga qarshi kurash va oldini olish» – Ichki ishlar vazirligi xodimlari uchun), Buyuk Britaniyada («Korrupsiyaga qarshi kurash») keng tarqalgan. Tashqi ishlar vazirligi xodimlari va eksportga jalb qilingan xodimlar uchun Korrupsiyaga qarshi maxsus seminarlar, Daniya (Global maslahat tarmog'i tomonidan ishlab chiqilgan Daniya Tashqi ishlar vazirligi uchun Korrupsiyaga qarshi ta'lim dasturlari), Shili (Vazirlik Diplomatik akademiyasi) Tashqi ishlar vazirligi – Tashqi ishlar vazirligi xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi savodxonlik kursi) va boshqa mamlakatlarda¹³.

¹³Материалы по обобщению опыта иностранных государств по реализации антикоррупционных образовательных программ, подготовленные Министерством образования и науки совместно с министерством иностранных дел Российской Федерации от 31.05.2011 г. за №МОН-П-1389.

5. Korrupsiyaga qarshi ta'limning aralash shakli. Ushbu shaklda Yuqoridagi bir nechta tushunchalar aralashgan bo'ladi. Bundan tashqari, rossiyalik olim S.V.Kodanning fikrisha, Korrupsiyaga qarshi kurashish sharoitida davlat xizmatining turli sohalarida (fuqarolik, huquqni muhofaza qiluvchi, harbiy) bo'lajak mutaxassislarni Korrupsiyaga qarshi tayyorlashni kengaytirish muammosini hal etish zarur.

To'rtta asosiy yo'nalish:

- 1) **umumiy gumanitar tayyorgarlik** – axloqiy va qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirish va korrupsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi ichki cheklovlarni shakllantirish;
- 2) **huquqiy tayyorgarlik** – Korrupsiyaviy xarakterdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka asos bo'ladigan va ularni sodir etish ehtimolining oldini oluvchi qonun hujjatlarini bilish;
- 3) **boshqaruv kadrlarini tayyorlash** – alohida davlat organi va ularning tizimi doirasida Korrupsiyaga qarshi faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqaruv xarakteridagi bilimlarni egallash;
- 4) **amaliy mashg'ulotlar** – aholi bilan ishlashda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, korrupsiya holatini o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ishlarda ishtirok etishning amaliyoti va boshqa shakllari¹⁴.

Davlat xizmatchisining axloqiy va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirish. Korrupsiyaga qarshi kurash kontekstida bu korrupsiya faoliyatiga o'zining ichki qarshiligini shakllantirish, korrupsiyaning jamiyat va davlat boshqaruvi tizimining normal

¹⁴Кодан С.В. Антикоррупционная подготовка в стратегии и практике ротиводействия коррупции. – С. 272-277.



rivojlanishiga mos kelmasligini tushunish bilan bog'liq eng murakkab muammo bo'lib ko'rinadi. Korrupsiyaning namoyon bo'lishini oqlash uchun jamoatchilik fikrining ma'lum an'analari va o'ziga xosligi va aholining etarlisha keng doiralarning ularga nisbatan bag'rikenglik munosabati bu masalani amaliy amalga oshirishda juda muammoli qiladi. Shunga qaramay, ta'limning mafkuraviy tarkibiy qismi kengaytirilishi kerak va bu yo'nalishda allaqachon maxsus nazariy va amaliy tayyorgarlik uchun zarur asos va sharoit bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, kasbiy etika kabi o'quv fanlarining o'rni beqiyos bo'lib, ular doirasida bo'lajak mansabdor shaxsning fuqarolik pozitsiyalarining haqiqiy shakllanishi, axloqiy asoslarni o'rganish va anglash amalga oshiriladi va jamiyat hayotini boshqarishda davlat xizmatining ijtimoiy roli oshiriladi¹⁵.

Davlat xizmatchilarining huquqiy tayyorgarligi. Bu borada korrupsiyaviy xarakterdagi huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlikning asoslari va mazmunini oydinlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bo'yicha qonun hujjatlari nihoyat ishlab chiqilishi va davlat hokimiyati, manfaatlariga qarshi jinoyatlar ro'yxatini kengaytirishga o'tishi kerak. Jinoyat kodeksida mustahkamlangan davlat xizmati va xizmat ko'rsatish mahalliy hokimiyat organlari. Bunday profilaktik ta'sir (agar, nihoyat, korrupsiyaga qarshi kurash komraniyaning «bo'rilar»ga qarshi kurashidan huquqni muhofaza qilish organlarining odatiy va izchil faoliyatiga aylansa) korrupsiya ko'rinishlarining

umumiy oldini olish xarakteriga ega bo'lishi kerak.

Davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi maxsus boshqaruv malakasini oshirish. Bu korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ta'lim dasturlarida asosiy komponent hisoblanadi. Ushbu muammo kontekstida korrupsiyaga qarshi faoliyat sohasida maxsus boshqaruv kadrlarini tayyorlash zarur. Bu turli darajadagi mansabdor shaxslarga, ayniqsa, rahbarlarga har bir alohida davlat organi darajasida korrupsiyaning oldini olish va aniqlash bo'yicha ishlarni tashkil etishda yordam beradigan boshqaruv tizimi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi¹⁶.

Umuman olganda korrupsiyaga qarshi ta'lim berish bo'yicha bir qator xalqaro standartlar mavjud bo'lib, ular uzluksiz rivojlantirib borilmoqda.

¹⁵Кодан С.В. Антикоррупционная подготовка в стратегии и практике противодействия коррупции. – С. 272-277.



References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 03-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-son Qarori
2. Qobilov.Sh.R. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlari va oldini olish yo'llari. Monografiya / – T.: O'zbekiston IIV akademiyasi.
3. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T., To'xliyev N., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. 2006-2008. O'zbek tilining izohli lug'ati. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
4. Министерством образования и науки совместно с министерством иностранных дел Российской Федерации от 31.05.2011 г. за №МОН-П-1389.
5. Кодан С.В. Антикоррупционная подготовка в стратегии и практике противодействия коррупции. – С. 272-277.
6. Corruption in Sweden Exploring Danger Zones and Shange. Staffan Andersson, Department of Politisal Ssiense, Umea University, SE-901 87 Umea, Sweden.